

IRODAVIY SIFATLARNI PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Shakarova Nafosat Shavkatovna

O'zbekiston milliy usiversiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Psixologiya yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada insonda iroda tushinchasini ahamoiyati, fizologik boshqaruvdagi o'rni haqida malumotlar berib o'tilgan. Irodani shakllanishida ahamiyatga ega bo'lgan boshqa omillar haqida ham malumotlarga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Iroda, qattiyat, sobitqadamlilik, tirishqolilik, matonatlilik, alubiya, apraksiya ishbilarmonlilik, mustaqillilik.

Аннотация: В статье представлена информация о значении понятия воли у человека, его роли в физиологическом управлении. Обсуждается также информация о других факторах, имеющих значение в формировании воли.

Ключевые слова: Воля, решительность, стойкость, трудолюбие, упорство, алубия, aprаксия, деловая хватка, самостоятельность.

Abstract: The article provides information about the importance of the concept of will in humans, its role in physiological control. Information about other factors that are important in the formation of the will is also discussed.

Keywords: Will, determination, steadfastness, diligence, tenacity, alubia, apraxia, business acumen, independence.

Iroda - bu kishining o'z xulqi va faoliyatini ongli ravishda boshqarish, maqsadga yo'naltirilgan xatti-xarakat va xulqi atvorining amalga oshishida tashqi, ichki qiyinchiliklarni yengib o'tishga-qaratilgan jarayonlar. Iroda tufayli inson o'z faoliyatini ongli boshqaradi, maqsad qo'yadi, maqsadni amalga oshirish mobaynida uchraydigan to'siqlarni, qiyinchiliklarni yengishga xarakat qiladi. Psixologik tadqiqotlarni ko'rsatishicha irodaviy sifatlarning 300ga yaqin turi mavjud. Irodaviy sifatlarni bir qancha kamponetlari mavjud bulib ular quyidagilar: istak, maqsad, xoxish, ijro etish, ichki qiyinchiliklarni yengish, bajarilgan ishga baho berish kabilardir. Insonning o'z faoliyatini va xulqi atvorini shaxsiy xoxish irodasiga bo'ysundirish, ro'yobga chiqarish mustaqil fikrlashni barqarorlashtirish ko'zlangan maqsadni amalga oshirishga puxta zamin hozirladi. Yoshlarni irodasi avvalo ularning ijtimoiy faoliyatida, mehnat faoliyatida, ijtimoiy tajribasida va ta'lim jarayonida namoyon bo'ladi. Yoshlarimizda irodaning bir qancha sifatlari ko'zga tashlanadi. Bular: qattiyatlilik, tashabbuskorlik, dadillik, mustaqillik, tejamkorlik, intizomlilik, tirishqoqlik, javobgarlilik, jasoratlilik, ishonch va o'zini irodalashlilik kabilar. Bugungi kunda yoshlarimizning bilim olishga ehtiyojining kuchayishi ulardagi aqliy salohiyati o'sishi ko'p jihatdan ularning irodaliy bo'lishini talab etadi. Chunki iroda tufayli inson

birov-bir maqsad asosida ko'zlangan ishini hatti-harakatlarini bajarishga intiladi. Ta'lim jarayonida o'quvchi yoshlarda irodaviy sifatlarni tarbiyalash, ularni o'quv faoliyatlarida duch keladigan tushiq va qiyinchiliklarni yengishga o'rgatish, ta'lim jarayonida muvaffaqiyatlik tarzda amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Bilimlarni egallashdagi sobitqadamlilik - bosh irodaviy sifat, hislat hisoblanib u irodaning boshqa ko'rinishlarining taraqqiyot darajasini va o'sishini aniqlovchi asosiy omil bo'lib sanaladi. Mustaqil va kelajagi buyuk davlat ideallarida sodiqlik vatan oldidagi burchlik yuksak darajada anglash jamoatchilik xissi, yurt ravnaqiga o'z xissasini qo'shishi istagi va bularning barchasi o'zbek xalqiga xos bo'lgan sobitqadamlilik namunasi. Ta'lim-tarbiya jarayonidagi tashabbuskorlik talabaning o'z xoxishini amalga oshirish o'quvchida, mustaqil bilim olish va fikrlashdagi qattiyatlilik - talaba yoshlar tomonidan jiddiy qaror qabul qilish uni izchil xayotga tadbiiq etish xislati sanaladi. Tirishqoqlik talaba yoshlarning qiyinchiliklarni yengish uchun kurashida sir va izoh hujjat maqsadiga erishish uchun intilish ko'nikmasi xisoblanadi. Muammolarni yechish chog'ida chidamlilik shaxs tomonidan qabul qilingan qarorda amalga oshirishga xalal beruvchi, fikrni hissiyot va hatti-harakatni turg'unlovchi (tormozlovchi) talabaning uquvchanligi xisoblansa tashkillanganliko'z harakati va xulqini rejalashtirish hususan uni ijro etishda talaba yoshlarning rejaga asoslanishini malakasi. Matonatlilik - qo'ygan maqsadni xavf-xatarga mos muqaddas his etgan holatda o'rni oqlaydigan xavf-xatarga qul urish, qurqinch nisbatan yuzma-yuz tura olish, fazilati. Ishbilarmonlik - har qanday o'rnatilgan ishni qiyinchiliklar va qarshiliklardan qat'iy nazar omilkorlik qo'llash tufayli oxiriga yetkazish xislatidir. Mustaqillilik - o'z e'tiqodiga qat'iy ishonch shaxsiy kuch quvvatiga ishonch, boshqalarning yordamiga muxtojlik sezmaslik kabi irodaviy sifatlardan xisoblanadi. Shaxsning xulq-atvorida, o'quv faoliyatida agarda ta'limiy mashg'ulotlar oqilona, xaqiqiy ravishda, to'g'ri uyushtirilsa insondagi bir qator irodaviy sifatlilar xam paydo bo'ladi, bunda oliy va o'rta maxsus o'quv yurti o'qituvchilari, murabbiylariga yuklanadi. Bu vazifani muvaffaqiyatli uddalash uchun ular oliy o'quv yurti talabalari va texnikum o'quvchilariga muntazam ravishda topshiriqlar berib, ularni o'z vaqtida va sifatli bajarishi uchun o'quvchilar masuliyat va sifatli (bajarilishi) hissini tarbiyalashlari lozim. Buning uchun o'quvchilarga fanlar bo'yicha uy topshiriqlari berish turli ko'rgazmali qurollar, referat ishlarini ko'rsatilgan muddatlarda qabul qilib olish baholash talaba yoshlarda intizomlilik, qund, chidam kabi bir qator irodaviy sifatlilar shaklanishiga sabab bo'ladi. Chunonchi yoshlarimizda komil inson qilib tarbiyalash ularni kelajagida yuksak aqliy saloxiyatli muxatassilar bo'lishlari o'z-o'zini boshqarish va uddalashga o'rgatish xozirgi zamon talabadir. Irodaning individual xususiyatlari va fenomenlari mavjud bo'lib, inson faoliyatining maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirishni ta'minlaydi. Iroda shaxs faoliyatining ichki qiyinchiliklarini yengishga qaratilgan ongli tuzilmadan iborat bo'lib, u o'zini o'zi boshqarish sifatida dastavval o'ziga, o'z shissiyotiga va xattiharakatlariga shukmronlik

qilishda aks etuvchi psixologik hodisadir. Irodaning kuchi yoki kuchsizligini aks ettiruvchi holatlar uning individual xususiyatlarini namoyon qiladi. Ana shu atamalardan kelib chiqqan holda irodasi kuchli va irodasi sust (kuchsiz) odamlar hamda ularning ijobiy va salbiy fazilatlarini, sifatlarini, hislatlarini, illatlarini to'g'risida mulohaza yuritiladi. Irodasi sustlikning patologiyasi mavjud bo'lib, ular abuliya (yunoncha abulia - qat'iyatsizlik degan ma'noni anglatadi) va apraksiya (yunoncha apraxia-harakatsizlik ma'nosini bildiradi) atamalarini bilan ifodalanadi. Abuliya - bu miya patologiyasi negizida vujudga keladigan faoliyatga intilishning mavjud emasligi, harakat qilish, uni amalga oshirish uchun qaror qabul qilish zarurligini anglagan tarzda shunday qila olmaslikdan iborat inson o'zligidir. Masalan, shifokor ko'rsatmalariga rioya qilish zarurligini to'g'ri fashmlagan abuliya kasali bilan shikastlangan bemor biror narsani bajarishga o'zini mutlaqo yo'lmaydi. Apraksiya -miya tuzilishining shikastlanishi tufayli yuzaga keladigan harakatlar maqsadga muvofiqligining murakkab buzilishidan iborat psixopatologik holatdir. Nerv to'qimalarining buzilishi miyaning peshona qismlarida yuz bersa, u holda xatti-harakatlarni erkin to'g'rilashda buzilish namoyon bo'ladi, natijada iroda akti bajarilishi qiyinlashadi. Abuliya va apraksiya-psixikasi og'ir kasallangan insonlarga xos, nisbatan noyob, fenomenal psixopatologik hodisalardir. Lekin pedagogik faoliyatda uchraydigan irodaning sustligi miya patologiyasi bilan emas, balki noto'g'ri tarbiya mashsuli bilan tavsiflanadi. Iroda sustligining yaqqol (tipik) ko'rinishlaridan biri-bu yalqovlik shisoblanib, shaxsning qiyinchiliklarini yengishdan bosh tortishga intilishi, irodaviy kuch-g'ayrat ko'rsatishni qat'iy ravishda istamasligida o'zini aks ettiruvchi illatdir. Yalqovlik - shaxs o'zligi va irodaviy sustligining, uning shayotga layoqatsizligining, shaxsiy va ijtimoiy faoliyatga (hamkorlikka) loqaydligining ifodasidir. Yalqovlik-shaxsning ruhiy qiyofasi bo'lib, uzluksiz tarbiyaviy ta'sir va o'zini o'zi tarbiyalash orqali bartaraf etish imkoniyati mavjud ruhiy nuqsondir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Психологические механизмы девиантного поведения. Психология XXI века. Ярославль., 2020. –С. 125-127.
2. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Стрессли вазиятларда психологик химоя механизмлари ва копинг хулқ-атвор намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари: стрессли вазиятларда психологик химоя механизмлари. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son 109-115 b.
3. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Ўсмирларда психологик химоя механизмларининг намоён бўлишининг ўзига хослиги. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 4 son 103-112 b.
4. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Экстремал вазиятларда копинг хулқ-атвор ва стратегиялар намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 3 son 98-106 b.
5. Olimov L.Ya., Baratov Sh. R. Авезов О.Р. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent. 2019. -B. 494.
6. Olimov L.Ya. Shaxs psixologiyasi. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2019. -B. 280.